

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

**“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA INNOVATSIYALARNI  
KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI  
INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI**

**INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE  
ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS  
DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ  
ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ  
ПЕРЕХОДЕ К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ**

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



Google  
Scholar

doi



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

I shu'ba

IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH  
MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN “YASHIL” IQTISODIYOTGA  
JADAL O‘TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO  
ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT  
GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ  
ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ







# O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI

Erdonaev Alikul Halimovich

i.f.n., dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida xorijiy tajribalarni joriy etishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya) bank tizimidagi raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarish modeli va mijozga yo'naltirilgan xizmat standartlarini tatbiq etishdagi cheklovlar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston bank sektorida kadrlar malakasi, texnologik infratuzilma va normativ-huquqiy moslashuvdagi to'siqlar asosiy muammolar sifatida aniqlangan. Tadqiqot asosida transformatsiyani jadallashtirish uchun takomillashtirilgan strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, transformatsiya, xorijiy tajriba, raqamli bank ishi, moliyaviy innovatsiyalar, bank islohoti.

**Abstract:** This paper analyzes key issues related to the implementation of international best practices in the transformation of commercial banks in Uzbekistan. The study focuses on the challenges of adopting digital banking technologies, risk management models, and customer-oriented service standards from developed countries such as the USA, Germany, and South Korea. Major barriers identified include limited human capital, underdeveloped technological infrastructure, and regulatory adaptation. The findings offer strategic recommendations to accelerate banking transformation in Uzbekistan.

**Key words:** commercial banks, transformation, foreign experience, digital banking, financial innovations, banking reform.

**Аннотация:** В статье анализируются актуальные проблемы внедрения зарубежного опыта в процесс трансформации деятельности коммерческих банков Узбекистана. Особое внимание уделено ограничениям при адаптации цифровых технологий, моделей управления рисками и клиенториентированных стандартов, применяемых в банковских системах США, Германии и Южной Кореи. Ключевыми барьерами определены недостаточная квалификация кадров, технологическая база и институциональные нормы. В заключение предложены стратегические рекомендации, направленные на ускорение трансформационных процессов.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, трансформация, зарубежный опыт, цифровой банкинг, финансовые инновации, банковская реформа.

Bugungi kunda global moliyaviy tizimda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar – raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarning mobil va bulutli shaklga o'tishi, sun'iy intellekt, blokcheyn, open banking va API platformalarning keng joriy qilinishi bank sektorini har tomonlama transformatsiyalash zaruratini tug'dirmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida moliyaviy texnologiyalar ko'lami keskin oshdi va bu jarayon O'zbekiston bank tizimiga ham kuchli ta'sir o'tkazdi. Bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash, real vaqt rejimida kredit baholash, mijozlar xatti-harakatini tahlil qilish va individual takliflar berish – bularning barchasi transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari bo'lib bormoqda. Ayni shu global fon sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli<sup>1</sup> Farmoni bilan tasdiqlangan Bank tizimini rivojlantirish strategiyasi (2020–2025) doirasida tijorat banklarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Mazkur strategik yondashuv doirasida xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy tizimga moslashtirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning ilg'or bank tizimlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, transformatsiya muvaffaqiyati asosan quyidagilarga bog'liq: raqamli texnologiyalarning uzluksiz joriy etilishi, mijozlarga yo'naltirilgan xizmat madaniyati, xavfsizlik protokollarining kuchliligi, ichki kompayens mexanizmlarining zamonaviyligi va inson kapitalining yuqori salohiyatiga ega bo'lishi. Masalan, AQSHda JPMorgan Chase, Bank of America, Wells Fargo kabi banklar moliyaviy texnologiyalar orqali kreditlash, investitsiya tahlili va real vaqt monitoringi sohalarida algoritmik yondashuvlarni keng qo'llaydi. Janubiy Koreyada KakaoBank va K-Bank kabi to'liq raqamli banklar bir necha yil ichida millionlab mijozlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ygan. Germaniyada Deutsche Bank raqamli transformatsiya dasturiga 13 milliard yevro sarmoya kiritgan bo'lib, IT-outsorsing, texnologik sheriklik va moliyaviy inno-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>



vatsiyalar markazlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Singapurda esa DBS va OCBC banklari sun'iy intellekt asosida kredit baholash, blokcheyn orqali tezkor to'lovlar va kiberxavfsizlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston tijorat banklari ushbu ilg'or tajribalarni qisman o'rganib, ularni implementatsiya qilishga harakat qilmoqda, biroq amaliyotda bir qator tizimli muammolar va to'siqlar mavjud. Jumladan, texnik-infratuzilmaviy cheklovlar eng dolzarb muammolardan biridir. Banklarning aksariyatida IT-arxitektura parchalangan bo'lib, yagonalashtirilgan platforma asosida ishlamaydi. Bu esa xizmatlar sinxronligi, ma'lumotlar uzatish tezligi va mijozlar tajribasini salbiy ta'sirga uchratadi. Shuningdek, malakali kadrlar tanqisligi, xususan, IT mutaxassislar, data-analitiklar, kiberxavfsizlik ekspertlari yetishmasligi transformatsiya jarayonlarini sekinlashtiradi. Raqamli xizmatlarni yuritish, fintech mahsulotlarni ishlab chiqish va bozorga chiqish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar kamchilik qiladi. So'rovnomalarga ko'ra, hozirda bank xodimlarining qariyb 43 foizi zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish uchun yetarli malakaga ega emas.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy baza ham jadal transformatsiyani cheklovchi omillardan biridir. Hozircha "open banking", "data-sharing" yoki "regulatory sandbox" kabi ilg'or konsepsiyalar O'zbekiston qonunchiligida yetarlicha yoritilmagan. Bu esa banklar va fintech kompaniyalari o'rtasidagi samarali hamkorlik, texnologik integratsiya va yangi xizmat turlarini joriy etishni murakkablashtiradi. Risklarni boshqarish tizimi esa aksar hollarda an'anaviy uslublarga asoslangan bo'lib, real vaqt rejimida bashorat qilish imkoniyatiga ega emas. Ko'p hollarda Excel asosidagi tahlilga tayaniladi, bu esa murakkab vaziyatlarda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot davomida 15 dan ortiq tijorat banklari vakillari, IT-mutaxassislar va regulyator idoralari bilan o'tkazilgan intervyular asosida O'zbekiston bank tizimidagi transformatsion muammolar batafsil tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, xorijiy tajribani to'g'ridan to'g'ri ko'chirib joriy etish emas, balki mahalliy sharoitga moslashtirish asosida bosqichma-bosqich implementatsiya qilish eng maqbul yondashuv ekani ta'kidlandi. Masalan, Janubiy Koreyadagi fintech-bank hamkorligi modeli, AQSHdagi ochiq API siyosati va Germaniyadagi IT-outsourcing infratuzilmasi O'zbekistonda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin, agar moslashuv mexanizmlari ishlab chiqilsa.

Ushbu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, tijorat banklari huzurida xalqaro ekspertlar ishtirokida raqamli transformatsiyaga ixtisoslashgan o'quv markazlari tashkil etilishi zarur. Bu markazlar orqali nafaqat xodimlar, balki bank rahbarlari ham zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini oshirishi kerak. Ikkinchidan, fintech kompaniyalar uchun "regulatory sandbox" orqali huquqiy sinov maydonini yaratish, bu orqali innovatsion mahsulotlar xavfsiz va qonuniy sinovdan o'tishi mumkin. Uchinchidan, raqamli infratuzilmaga davlat va xususiy kapitalni jalb etgan holda investitsiya loyihalari shakllantirish kerak. To'rtinchidan, mijozlarga yo'naltirilgan xizmat madaniyatini rivojlantirish uchun marketing va kommunikatsiya strategiyalari yangilanishi lozim. Va nihoyat, komplayens, risk va audit tizimlarining avtomatlashtirilishi banklar barqarorligi uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tijorat banklari transformatsiyasi – bu nafaqat texnologik, balki institutsional, madaniy va strategik muammolarni o'z ichiga olgan kompleks jarayondir. Bu yo'lda xorijiy tajriba eng samarali yo'nalishlarni ko'rsatib bera oladi, biroq ularni shart-sharoitlarimizga moslashtirib, strategik konsepsiyalar asosida joriy etish zarur. Transformatsiya nafaqat bank tizimining raqamli bosqichga o'tishini ta'minlaydi, balki O'zbekistonning umumiy iqtisodiy barqarorligiga, xalqaro investitsiyaviy reytinglariga va aholining moliyaviy inklyuziyasiga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot asosida ishlab chiqilgan takliflar davlat siyosati va tijorat banklari strategik rejalarini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni "Bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyasi to'g'risida". – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Banklar raqamli transformatsiyasining baholash mezonlari", 2023-yil. – [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).
3. Deutsche Bank Group. (2022). Annual Report 2022. Frankfurt: Deutsche Bank AG. – <https://www.db.com>.
4. JPMorgan Chase & Co. (2023). How AI and fintech are reshaping global banking. JPMorgan Publications.
5. KakaoBank Corp. (2022). Digital Banking Business Model: Growth Strategy and Performance. Seoul: K-Bank Research Institute.
6. DBS Bank Ltd. (2022). FinTech and Innovation Strategy in Singapore. Singapore: DBS Group Research.
7. Xolboev, M.T. (2021). Bank tizimini transformatsiya qilishda raqamli texnologiyalar va xorijiy tajribalar. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar – 2021, №3. – B. 45–52.
8. Nurov, B.K. (2020). O'zbekistonda moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. // TDIU ilmiy axborotnomasi, №4. – B. 61–66.
9. OECD (2021). Open Banking: Regulatory Approaches and Implementation Worldwide. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.



10. World Bank. (2023). Global Financial Development Report 2023: Fintech and the Future of Finance. Washington, DC: World Bank Publications.
11. Ganiev, S.S., & Qodirov, R.T. (2022). Komplayens va bank risklarini boshqarish tizimi: O'zbekiston va xorijiy tajriba. // Moliyaviy tahlil va audit – 2022, №2. – B. 33–39.
12. Financial Stability Board. (2022). Regulatory Approaches to FinTech Supervision. Basel: FSB Secretariat.



# MUNDARIJA

## I shu'ba

IJTIMOY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA  
JADAL O'TISH

## Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE  
DEVELOPMENT GOALS

## I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕННОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

|                                                                                                            |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....                                              | 4  |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>                                                        |    |
| Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO.....                         | 9  |
| <b>Шахзод Сайдуллаев</b>                                                                                   |    |
| "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish .....                    | 11 |
| <b>Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich</b>                                                                    |    |
| Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш<br>муаммолари ва ечимлари..... | 14 |
| <b>Икрамов Мақсад Муратович</b>                                                                            |    |
| O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati.....                       | 20 |
| <b>Karimov Baxrom Ilxomjonovich</b>                                                                        |    |
| Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development.....                          | 24 |
| <b>Khakimov Ziyodulla Akhmadovich</b>                                                                      |    |
| Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari.....              | 28 |
| <b>Raximov Furqat Jalolovich</b>                                                                           |    |
| Qashqadaryo viloyatida Safari turizmini rivojlantirish dinamikasini o'rganish.....                         | 32 |
| <b>Ro'ziyev Bobir Akramovich</b>                                                                           |    |
| Брендни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича замонавий<br>маркетинг назариялари ва стратегиялари.....      | 34 |
| <b>Зияева Шахло Шоакбар қизи</b>                                                                           |    |
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....                                              | 37 |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>                                                        |    |
| Ногиронлиги бор шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари .....                               | 42 |
| <b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>                                                                         |    |
| Ichki turizmni rivojlanlantirish tashkiliy mexanizmining asosiy prinsiplari.....                           | 45 |
| <b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b>                                                                         |    |
| "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ko'zi ojizlar bandligining innavatsion yechimi .....                       | 48 |
| <b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li</b>                                                                      |    |
| Аудиторлик текширувини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш хусусиятлари.....                           | 51 |
| <b>Исмоилова Феруза Исроиловна</b>                                                                         |    |



## II shu'ba

“YASHIL” IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA  
ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

## Section II

DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION  
OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

## II секция

ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ  
ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В “ЗЕЛЕНУЮ” ЭКОНОМИКУ

|                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....                            | 56  |
| <b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>                                                                            |     |
| Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi tahlili.....                                            | 58  |
| <b>Axmedov Doniyorbek Ulugbek o'g'li</b>                                                                           |     |
| Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari.....                    | 60  |
| <b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>                                                                                |     |
| Янги Ўзбекистонда инсон экологиясини юксалтиришнинг инновацион механизмлари.....                                   | 62  |
| <b>Ҳакимов Назар Ҳакимович, Рахмонов Дўстмурод Абдиназарович</b>                                                   |     |
| Тадбиркорлик субъектларини ривожлантиришда саноат ипотекасининг ўрни.....                                          | 67  |
| <b>Султанов Бахром Бегдуллаевич</b>                                                                                |     |
| Ижтимоий ҳимояни ривожлантиришда янгича ёндашувлар.....                                                            | 70  |
| <b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>                                                                                 |     |
| Капитал бозорини ривожлантириш масалалари.....                                                                     | 72  |
| <b>Турдиева Узайда Омирбаевна</b>                                                                                  |     |
| Инновацион тараққиёт йўлига ўтиш даврида меҳнатга ҳақ тўлашнинг<br>рағбатлантирувчи таъсирини оширирилиши.....     | 74  |
| <b>Алимжон Қўлматов</b>                                                                                            |     |
| Zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....                      | 78  |
| <b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>                                                                              |     |
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....                                                      | 81  |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>                                                                |     |
| Innovatsion rivojlanishni baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish (xorij tajribasi).....    | 86  |
| <b>Nuriddinov Zufar Akbarovich</b>                                                                                 |     |
| Махсус иқтисодий зоналар фаолияти самарадорлигини ошириш<br>борасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида.....      | 90  |
| <b>Давлаев Ғолиб Ашурович</b>                                                                                      |     |
| Hududlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” ish o'rinlarining ahamiyati..... | 92  |
| <b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor og'li</b>                                                                    |     |
| Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalar jarayonlarini samarali boshqarish yo'llari.....                | 94  |
| <b>Safarova Dilfuza Baxramovna</b>                                                                                 |     |
| Ижтимоий харажатларни молиялаштиришнинг асосий масалалари.....                                                     | 99  |
| <b>Тураев Очил Ярашевич</b>                                                                                        |     |
| Инсофли солиқ тўловчиларни кўпайтириш – солиқ кўрсаткичларининг муҳим омили сифатида.....                          | 102 |
| <b>Абдурасулов Алишер Абдурасулович</b>                                                                            |     |
| Ўзбекистоннинг солиқ сиёсати – макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилидир...106                     |     |
| <b>Ҳотамов Алишер Фарходович</b>                                                                                   |     |
| Мулкий муносабатларни ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни<br>тартибга солиш ва самарали бошқариш усуллари..... | 109 |
| <b>Бобобеков Эргаш Абдумаликович</b>                                                                               |     |





## III shu'ba

## YANGI O'ZBEKISTONDAGI KO'P VEKTORLI, PROGRAMTIK, KONSEPTUAL ISLOHOTLARIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI KENG JORIY ETISH ORQALI TARKIBIY O'ZGARTIRISHLARNI CHUQURLASHTIRISH

## Section III

## DEEPENING STRUCTURAL CHANGES DUE TO WIDE IMPLEMENTATION OF "GREEN" ECONOMY IN MULTI-VECTOR PROGRAMMATIC, CONCEPTUAL REFORM IN THE NEW UZBEKISTAN

## III секция

## УГЛУБЛЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ПЕРЕМЕН ЗА СЧЕТ ШИРОКОГО ВНЕДРЕНИЯ "ЗЕЛеной" ЭКОНОМИКИ В МНОГОВЕКТОРНЫХ ПРОГРАММАТИЧЕСКИХ, КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

|                                                                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Инклюзив иқтисодий ўсиш: назария, муаммо ва уларнинг ечимлари.....                                                                                                                                        | 113 |
| <b>Тангрибердиев Сулаймон Камилжонович</b>                                                                                                                                                                |     |
| О'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari.....                                                                       | 116 |
| <b>Davranov Iskandar Jumayevich</b>                                                                                                                                                                       |     |
| Предпосылки развития зелёного финансирования коммерческими банками Узбекистана .....                                                                                                                      | 123 |
| <b>Шадиева Дилдора</b>                                                                                                                                                                                    |     |
| Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари.....                                                                                                                                          | 125 |
| <b>Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Анализ и оценка учета финансовых результатов и направления его к совершенствованию.....                                                                                                                   | 128 |
| <b>Шин Инесса Олеговна</b>                                                                                                                                                                                |     |
| Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari ...                                                                                        | 132 |
| <b>Davranov Iskandar Jumayevich</b>                                                                                                                                                                       |     |
| Йирик инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш, самарали молиялаштириш манбаларини аниқлаш ва уларни амалга оширишда юзага келадиган асосий хатарлар (рисклар)ни таҳлил қилиш ("Олмалиқ КМК" АЖ мисолида)..... | 135 |
| <b>Аббосхон Азимов Гайратиевич</b>                                                                                                                                                                        |     |
| Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари.....                                                                                                                                          | 139 |
| <b>Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Корпоратив тузилмаларда дебитор қарздорликнинг иқтисодий моҳияти ва асосий мезонлари .....                                                                                                                | 142 |
| <b>Мустафаева Шахло Мирзакуловна</b>                                                                                                                                                                      |     |
| Тижорат банкининг комплаенс назорати, унинг моҳияти ва аҳамияти.....                                                                                                                                      | 145 |
| <b>Юнусов Бахтиёр Шавкатович</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'zbekiston Respublikasida zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari .....                                                                                                                  | 149 |
| <b>Kadirov Laziz</b>                                                                                                                                                                                      |     |
| Xorijiy mamlakat banklarida ilk bor komplayens nazoratiga bo'lgan ehtiyoj hamda sanksiyon komplayensning o'ziga xos xususiyatlari.....                                                                    | 152 |
| <b>Yunusov Baxtiyor Shavkatovich</b>                                                                                                                                                                      |     |
| Raqamli iqtisodiyotda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida mehnat unumdorligini oshirish asoslari.....                                                                                                 | 154 |
| <b>Abduraimov Abdulaziz Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                                                                               |     |
| Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish asosida o'simlikchilik samaradorligini oshirish .....                                                                                                       | 157 |
| <b>Khalimova Dilara Olimboyevna</b>                                                                                                                                                                       |     |
| Камбағалликни ҳудудларда қисқартиришнинг хорижий тажрибалари.....                                                                                                                                         | 161 |
| <b>Ҳамдамов Шаҳзод Илҳом ўғли</b>                                                                                                                                                                         |     |
| Предпосылки развития зелёного финансирования коммерческими банками Узбекистана .....                                                                                                                      | 164 |
| <b>Шадиева Дилдора</b>                                                                                                                                                                                    |     |
| O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni .....                                                                                                   | 167 |
| <b>Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                                                               |     |
| Стратегические подходы к устойчивому экономическому развитию туристической индустрии в Паркентском районе: анализ перспектив и определение вызовов .....                                                  | 172 |
| <b>Гаппарова Майрамхон Зафар қизи</b>                                                                                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                                                       |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Теоретико-методологический анализ социально-экономического прогресса в контексте туристической индустрии Ташкентской области: стратегический обзор и перспективы..... | 177 |
| <b>Гаппарова Майрамхон Зафар қизи</b>                                                                                                                                 |     |
| O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni .....                                                               | 183 |
| <b>Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                           |     |
| Ижтимоий харажатларни молиялаштиришнинг асосий масалалари .....                                                                                                       | 188 |
| <b>Тураев Очил Ярашевич</b>                                                                                                                                           |     |
| Применение цифровых технологий в противодействии финансовым мошенничествам .....                                                                                      | 192 |
| <b>Гадаев Исмаи Ядгарович</b>                                                                                                                                         |     |
| Блокчейн-технологии и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана .....                                                                              | 196 |
| <b>Кадыров Алишер Исмаилович</b>                                                                                                                                      |     |
| Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) .....                        | 200 |
| <b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich</b>                                                                                               |     |
| Turistik destinatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari .....                                                                             | 204 |
| <b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>                                                                                                                             |     |
| Tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarish .....                                                                                                          | 209 |
| <b>Adilov Mirkomil Miralimovich</b>                                                                                                                                   |     |
| Mamlakatimizda jismoniy shaxslar bo'yicha kredit yuki tahlili .....                                                                                                   | 212 |
| <b>Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li</b>                                                                                                                             |     |
| Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari .....                                                                                                 | 216 |
| <b>Abduraxmanov Otabek Patidinovich</b>                                                                                                                               |     |
| Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari .....                                                                                              | 219 |
| <b>Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich</b>                                                                                                                           |     |
| Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish yo'nalishlari .....                                       | 222 |
| <b>S.M.Xolxo'jayev</b>                                                                                                                                                |     |
| Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari .....                                                                                              | 225 |
| <b>Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich</b>                                                                                                                           |     |
| Organik mahsulotlar bozorini rivojlantirishda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati.....                                                        | 228 |
| <b>Xidirov Shohrux Bobur o'g'li</b>                                                                                                                                   |     |
| Tibbiy reabilitologiya .....                                                                                                                                          | 231 |
| <b>Mirzaliyeva Surmaniso Alisher qizi</b>                                                                                                                             |     |
| Kichik korxonalarning mohiyati va uni tarkibiy-nazariy konsepsiyalari .....                                                                                           | 235 |
| <b>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>                                                                                          |     |
| Innovatsion loyihalarni amalga oshirishning korxonalar samaradorligiga ta'sirini baholash .....                                                                       | 238 |
| <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>                                                                                                                                |     |
| Tabiiy resurslardan foydalanishda barqarorlikning o'rni: iqtisodiy va ekologik muvozanat .....                                                                        | 242 |
| <b>Turdiyeva Iroda Ismoil qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| O'zbekistonda biznes subyektlarining o'z kapitali strukturasini kengaytirish .....                                                                                    | 245 |
| <b>Adilov Sherzot Shamilevich</b>                                                                                                                                     |     |
| Raqibni orqaga otishning rasmiylashtirilgan modeli .....                                                                                                              | 248 |
| <b>A.T.Tangriyev</b>                                                                                                                                                  |     |
| O'zbekiston tijorat banklarini transformatsiya qilishda xorijiy tajribalarni joriy etish muammolari .....                                                             | 252 |
| <b>Erdonaev Alikul Halimovich</b>                                                                                                                                     |     |

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.